



FARG'ONA VILOYATI OLTIRIQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 29-oktabr

315-11-151-Q/25

Oltiriq tuman hokimligi

Oltiriq tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan tumanda 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a‘zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy

zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo'lgan tashkilotlarga nisbatan qo'llanilishi;

budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar faqat nogironligi bo'lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag'al oilalar reyestrtdagi oilalarning a'zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o'rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo'lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Oltiariq tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi hamda Oltiariq tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazining Oltiariq tumani hududidagi tashkilotlar bo'yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o'rinlarini belgilash to'g'risidagi **quyidagi** takliflari ma'qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo'lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o'rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o'rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 343 ta ish o'rinlarini zaxiraga qo'yish, jumladan:

nogironligi bo'lgan shaxslar uchun 39,2 foiz (134 kishi);

oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 1,4 foiz (5 kishi);

kambag'al oilalar reyestrtdagi oilalarning a'zolari uchun 56 foiz (192 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslar uchun 1,7 foiz (6 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 1,1 foiz (4 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 0,6 foiz (2 kishi) miqdorida ish o'rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar**:

davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo'yiladigan ish o'rinlarining manzilli ro'yxati **1-ilovaga** muvofiq;

xodimlarining ro'yxatdagi o'rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan

korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo'yiladigan ish o'rinlarining manzilli ro'yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o'n kundan kechiktirmay ta'minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Oltiariq tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limini xabardor qiladi;

ish o'rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo'yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta'minlashi, bu haqda Oltiariq tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limini birinchi chorak tamom bo'lganidan so'ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to'g'risida Oltiariq tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlarini saqlash shartlari O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta'minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo'lgan shaxslarni ish o'rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga -har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag'larini to'lab berilsin.

6. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni 3-,13-,34-,38-,39-,40-,41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o'rinlarini zaxiraga qo'yish bo'yicha Oltiariq tumani hokimining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to'lash tashkilotni zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlarining belgilangan sonini yaratish bo'yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Oltiariq tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (U.Mirzamuxamedov):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko'rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e'tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlasin.

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash bo'yicha xalq deputatlari Oltiariq tumani Kengashining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish ta'minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari I.Gafurov zimmasiga yuklatilsin.

Oltiariq tumani hokimi



Sh.Turdaliyev

Oltiariq tumani hokimining
2025-yil 29-oktabrdagi
315-11-151-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Oltiariq tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo'yiladigan ish o'rinlarining manzilli

RO'YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo'yladigan ish o'rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo'lgan shaxslar soni		Nogironligi bo'lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdagi jabrlangan shaxslar	Kambag'al oilalar reestridagi oilalarning a'zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, otasona qaramog'ida bo'lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalariidan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidagi jabrlangan shaxslar
	ЖАМИ:		7322	36	266	107	3	146	5	3	2
1	1-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	300454581	213	1	6	2	1	3			
2	2-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	300454788	105	1	5	2		3			
3	4-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	300454463	91	0	4	2		2			
4	5-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	203319116	86	0	3	2		1			
5	6-sonli Umumiy	300456484	114	0	4	2		2			

	o'рта ta'lim maktabi										
6	8-sonli Umumiy o'рта ta'lim maktabi	300456950	44	0	3	1		2			
7	9-sonli Umumiy o'рта ta'lim maktabi	300457055	121	3	4	1		3			
8	10-sonli Umumiy o'рта ta'lim maktabi	300454606	123	1	4	2		2			
9	11-sonli Umumiy o'рта ta'lim maktabi	300454749	78	1	3	1		2			
10	12-sonli Umumiy o'рта ta'lim maktabi	300460512	90	0	5	2		3			
11	13-sonli Umumiy o'рта ta'lim maktabi	300455256	92	1	2	1		1			
12	14-sonli Umumiy o'рта ta'lim maktabi	300457499	52	0	3	1		2			
13	15-sonli Umumiy o'рта ta'lim maktabi	300454598	98		5	2		3			
14	17-sonli Umumiy o'рта ta'lim maktabi	300454961	117	2	5	2		3			
15	20-sonli Umumiy o'рта ta'lim maktabi	203319052	108	1	4	2		2			
16	21-sonli Umumiy	300456397	113	1	4	2		2			

	o'rta ta'lim maktabi										
17	23-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	300461867	77	0	2	1		1			
18	25-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	300471689	67	1	3	1		2			
19	26-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	300454771	104	0	4	2		2			
20	27-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	300461850	80	1	4	1		3			
21	28-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	203319069	65	0	3	1		2			
22	29-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	300471198	81	0	4	2		2			
23	30-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	300454882	66	1	3	1		2			
24	31-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	300454684	98	1	4	2		2			
25	32-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	203319109	80	0	5	2		2	1		
26	34-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	300459535	78	1	3	1		2			
27	38-sonli Umumiy	203319091	107	0	3	2		1			

	o'rta ta'lim maktabi										
28	39-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	300455217	114	0	5	2		3			
29	40-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	300456491	44	0	3	1		2			
30	41-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	300456738	60	1	3	1		2			
31	43-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabi	306617476	75	0	5	2		3			
32	1-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207006036	84	0	5	2	1	2			
33	2-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207006068	85	0	5	2		3			
34	3-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207022904	35	0	2	1		1			
35	5-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207023070	41	0	2	1		1			
36	6-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207006075	62	0	2	1		1			
37	7-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	305399060	70	0	4	2		2			
38	10-sonli Davlat	305408515	47	0	3	1		2			

	maktabgacha ta'lim tashkiloti										
39	11-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	305702958	62	0	4	1		3			
40	12-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207022935	43	0	2	1		1			
41	13-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207023031	35	0	2	1		1			
42	16-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207022974	47	0	3	1		2			
43	17-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207057535	33		2	1		1			
44	20-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207023103	50	0	3	1		2			
45	22-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207023055	66	1	2	1		1			
46	24-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207022911	62	0	4	1		3			
47	26-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207022928	44	0	3	1		2			
48	33-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207023024	48	1	2	1		1			
49	34-sonli Davlat	207022943	44	0	3	1		1	1		

	maktabgacha ta'lim tashkiloti										
50	35-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207006044	83	1	3	1		2			
51	37-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207006029	73	0	4	2		2			
52	38-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207023016	38	0	2	1		1			
53	39-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207022982	38	0	2	1		1			
54	40-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	305892604	31	0	2	1		1			
55	41-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207054745	52	0	3	1		2			
56	45-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207054784	39	0	2	1		1			
57	46-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	2 07 0231 10	34	0	2	1		1			
58	Barkamol avlod bolalar maktabi	207123097	73	0	4	2		2			
59	Oltiariq tuman 1-son politexnikumi	203329135	97		4	2		2			
60	Oltiariq tuman 2-	200175687	122		4	2		2			

	son politekniki										
61	14-bolalar va o'smirlar sport maktabi	301033353	68	0	4	2		2			
62	1-sonli shifoxona	200174514	141	0	4	2		2			
63	Tibbiyot birlashtirish	200174744	1671	8	20	5	1	9	2	2	1
64	4-sonli iqtisodlashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	300463444	90	0	6	2		4			
65	Keksalar va Nogironligi bo'lgan shaxslar Urush va mehnat faxriylari uchun Oltiariq sanatoriysi	200175569	201	2	6	2		3			1
66	Viloyat Bolalar Fiziatriya shifoxonasi Fayzobod	200174561	124	0	4	2		1	1		
67	Oltiariq tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	200174664	95	1	5	1		4			
68	Oltiariq tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	200175624	28	0	2	1		1			
69	Oltiariq tuman Yo'llardan	200174830	144	0	5	2		2		1	

	foydalanish korxonasi										
70	Tuman Obodonlashtirish bo'limi	200174696	199	3	5	2		3			
71	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya- epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Farg'ona viloyat Oltiariq tuman bo'limi	200174633	82	1	2	1		1			

Oltiariq tumani hokimining
2025-yil 29-oktabrdagi
315-11-151-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Oltiariq tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro'yxatdagi o'rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo'yiladigan ish o'rinlarining manzilli

RO'YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo'yladigan ish o'rinlari soni	shu jumladan:			
				nogironligi bo'lgan shaxslar soni		Nogironligi bo'lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag'al oilalar reestrtdagi oilalarning a'zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslar
ЖАМИ:			1582	10	77	27	2	46	1
1	"HEAT ANSOR" mas'uliyati cheklangan jamiyati	311163685	663	0	30	20	1	9	
2	"HAMZA EXPO ART TEKSTIL" mas'uliyati cheklangan jamiyati	301741027	237	0	17	7	1	7	1
3	"FROMDA TEKSTIL" mas'uliyati cheklangan jamiyati	206611883	134	0	10			10	
4	"OLTIARIQ AVTO GRANT	302200857	260	3	10			10	

	SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati								
5	"TARAQQIYOT QURILISH FAYZ" mas'uliyati cheklangan jamiyati	303774048	288	7	10			10	